



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA HORIIYIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	100
	<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
	ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
	<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
	TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
	<b>Хо'jamov Akbar Bahriddinovich</b>	
	KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
	<b>Djumayev Askar Xaydarovich</b>	
	SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
	<b>Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li</b>	
	<b>Qahhorova Nargiza Qahramonovna</b>	
	<b>Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li</b>	
	<b>Jamilov Firdavs Otabek o'g'li</b>	
	ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ .....	129
	<b>Норкулов Хабибулло</b>	
	<b>Абдурасулова Шахзода</b>	
	<b>Бахриддинов Дилшодбек</b>	
	NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV .....	135
	<b>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi</b>	
	SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	138
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>		
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ .....	147	
<b>Джуманов А.А.</b>		
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157	
<b>Masharipova Durdona Ulug'bekovna</b>		
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164	
<b>Джуманов А.А.</b>		
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174	
<b>Rahmanov Furqat Temirovich</b>		
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	179	
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>		
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....	186	
<b>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</b>		
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192	
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>		



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI .....	198
<b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b>	
<b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li</b>	
<b>Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li</b>	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	204
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	210
<b>Курбанова Дилфуза Махсудовна</b>	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	217
<b>Karimova Feruza Xamidullayevna</b>	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
<b>Ishniyazov Zoxid Normamatovich</b>	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	226
<b>Inomov Daniyar Valijonovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
<b>Niyozov Zuhur Davronovich</b>	
<b>Xolmurotov Sardor</b>	
<b>Haydaraliyev Avaz</b>	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL .....	238
<b>Tolibova Aziza To'lqin qizi</b>	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
<b>Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna</b>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	247
<b>Masharipova Sevara</b>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	251
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich</b>	
<b>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	256
<b>Iskandar Yunusov</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIYIQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI .....	262
<b>Mirzanov Berdak Joldasbeviç</b>	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI .....	268
<b>A'zamxo'jayeva Nihol</b>	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH .....	273
<b>Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich</b>	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
<b>Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA) .....	284
<b>G.A. Norbo'tayeva</b>	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	288
<b>Charos G'ayratova</b>	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
<b>Джуманов, А.А.</b>	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
<b>Bayitova Rohatoy Bahrom qizi</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI .....	307
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
<b>Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li</b>	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS .....	320
<b>Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	327
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	
MHS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL.....	331
<b>Davronbek Matyakubovich Matkarimov</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI.....	336
<b>Xasanova Yulduz Kayumovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	340
<b>Saidqosimova Umida Ibragimovna</b>	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN.....	345
<b>Niyozov Zukhur</b>	
<b>Barnoyev Mirfayoz</b>	
<b>Yadgarov Avaz</b>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING .....	349
<b>Begzod Nishanov</b>	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	356
<b>Raxim Matniyazov</b>	
<b>Umar Asrayev</b>	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	367
<b>Зугурова Зилола Дамировна</b>	



EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV .....	371
<b>Gapparov Sarvar Xolmurodovich</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ .....	375
<b>Гимранова О. Б.</b>	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar) .....	383
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	388
<b>Raximov Faxriddin Shavkatovich</b>	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI .....	393
<b>Urazmatov Jonibek Musurmanovich</b>	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORI: JORIY HOLAT, TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA .....	398
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
KORXONALAR EKSPORT FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	403
<b>To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR .....	410
<b>Islomov Shuhrat Marufjonovich</b>	
<b>Eshquvvatova Nodira Abdullayevna</b>	
METHODOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCING PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT .....	416
<b>Dilnoza Jorayevna Kuvatova</b>	
MINTAQAVIY TURIZM RESURLARINING TASNIFI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI (SAMARQAND, BUXORO VA XORAZM VILOYATLARI MISOLIDA) .....	420
<b>Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li</b>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHLTLARI .....	423
<b>Azamova Gulruh Akbar qizi</b>	
BUXORODA TURISTLAR XAVFSIZLIGI: TURISTLARNING XAVFSIZLIK HISSI VA MUAMMOLAR TAHLILI .....	428
<b>Kurbanova Mohinur Xabib qizi</b>	
<b>Davronova Durdona Akobirovna</b>	
BUXORO VILOYATIDA EKOLOGIK VA MADANIY TURIZMNI INTEGRATSIYALASHGAN YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH: BARQAROR RIVOJLANISH METODLARI VA ISTIQBOLLARI .....	436
<b>Xayrullayeva Nilufarbegim Nematullo qizi</b>	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИСТОЧНИКОВ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ .....	445
<b>Хашимова Н. А.</b>	
QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINING STATISTIK TAHLILI .....	454
<b>M.Sh. Raximova</b>	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI RIVOJLANISHI HAMDA QONUNIY QO'LLAB-QUVVATLANISHI.....	458
<b>Raimbayev Azim Sultonovich</b> <b>Bolbekova Iroda Quvandiq qizi</b>	
MHXS GA MUVOFIQ FOIZLAR, SOLIQLARNI TO'LAGUNGA QADAR OLINGAN FOYDANI HISOBGA OLISH MASALALARI.....	466
<b>Amir Xudaykulov</b>	
SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING KONSEPTUAL-EKONOMETRIK MODELİ .....	470
<b>Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich</b>	
THE DIGITAL GASTRONOME: HOW TECHNOLOGY CONNECTS TOURISTS, RESTAURANTS, AND THE TECH EMPIRE.....	479
<b>Freshta Qauomy</b>	
BUXORO VILOYATINI IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI .....	481
<b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ И ПОДДЕРЖКИ В РЕГИОНЕ.....	487
<b>Рахимова Мадина Шухрат кизи</b>	
THE DIGITAL ECONOMY AND ITS IMPACT ON THE LABOUR MARKET AND EMPLOYMENT IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN: PANEL DATA ANALYSIS .....	493
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
MINTAQADA QURILISH SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	500
<b>Aminov Sardorbek Sanjarbekovich</b>	
QURILISHDA KICHİK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASINING SINERGETIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA PROGNOZLASHTIRISH.....	504
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	
YASHIL INVESTITSIYALARNING NAZARIYUSLUBIY ASOSLARI: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA TASNIF MASALALARI.....	509
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ УСТОЙЧИВОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ ДО 2030 ГОДА: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ.....	518
<b>Файзиева Сайёра Кудратовна</b>	
ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖЕЙ .....	526
<b>Бабаева Г.Я.</b>	
NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI MONOPREDIKATIV SINTAKTIK QURILMALAR.....	534
<b>Jabbarov Abdug'afur Abdug'aniyevich</b>	

# NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI MONOPREDIKATIV SINTAKTIK QURILMALAR



**Jabbarov Abdug'afur Abdug'aniyevich**  
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi  
ORCID: 0009-0004-7061-1621

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi monopredikativ sintaktik qurilmalar vokativ hamda infinitiv gaplar misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda aniq lingvistik misollar asosida mazkur qurilmalarning ilmiy-nazariy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, vokativ va infinitiv gaplarda monopredikativlikning namoyon bo'lishi hamda ularning nutq jarayonidagi kommunikativ vazifalari nemis va o'zbek tillari materiallari asosida o'rganiladi. Ishning ilmiy yangiligi ikki til materialining qiyosiy tahlil qilinishi, ularning o'xshash va farqli jihatlari tizimli tarzda umumlashtirilgani bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** monopredikativ gap, buyruq gaplar, semantik tahlil, nemis tili sintaksisi, monopredikativ qurilmalar, kommunikativlik, sodda gap, ega, kesim, monopredikativlik.

**Abstract.** This article analyzes monopredicative syntactic constructions in German and Uzbek through the examples of vocative and infinitive sentences. The study presents the scientific and theoretical features of these constructions on the basis of specific linguistic examples. It also highlights the manifestation of monopredicativity in vocative and infinitive sentences and their communicative functions in speech, based on the materials of the German and Uzbek languages. The scientific novelty of the research is determined by the comparative analysis of the two language materials and the systematic generalization of their common and distinctive features.

**Keywords:** monopredicative sentence, imperative sentences, semantic analysis, German syntax, monopredicative constructions, communicativity, simple sentence, subject, predicate, monopredicativity.

**Аннотация:** В данной статье анализируются монопредикативные синтаксические конструкции в немецком и узбекском языках на примере вокативных и инфинитивных предложений. В исследовании на основе конкретных лингвистических примеров раскрываются научно-теоретические особенности данных конструкций. Также освещается проявление монопредикативности в вокативных и инфинитивных предложениях и их коммуникативные функции в речи на материале немецкого и узбекского языков. Научная новизна работы определяется сопоставительным анализом материала двух языков и систематическим обобщением их сходных и отличительных признаков.

**Ключевые слова:** монопредикативное предложение, повелительные предложения, семантический анализ, синтаксис немецкого языка, монопредикативные конструкции, коммуникативность, простое предложение, подлежащее, сказуемое, монопредикативность.

## KIRISH

Hozirgi kunda tilshunoslikda sintaktik qurilmalarning kommunikativ-funksional xususiyatlarini qiyosiy aspektida o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Monopredikativ birliklar tarkibida bitta predikativ markaz mavjud bo'lib, ular yagona hukm yoki kommunikativ mazmuni ifodalovchi sintaktik birliklardir. Bunday birliklar sodda gaplarning asosiy ko'rinishini tashkil etadi hamda voqelik haqidagi bitta predikativ munosabatni aks ettiradi.

Predikativlik gapning voqelik bilan bog'lanishini, ya'ni biror predmet, hodisa yoki harakat haqidagi hukmni ifodalaydi. Agar gapda bitta hukm ifodalansa, u monopredikativ, ikki yoki undan ortiq hukm ifodalansa,



polipredikativ hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi nemis va o'zbek tillaridagi vokativ hamda infinitiv gaplarning monopredikativ tabiatini, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida nemis va o'zbek tillaridagi vokativ va infinitiv gaplar, predmeti sifatida esa ularning monopredikativlik xususiyatlari belgilangan. Tadqiqot vazifalari monopredikativlik tushunchasini nazariy jihatdan yoritish, vokativ gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, infinitiv gaplarning sintaktik-semantik belgilarini aniqlash hamda ikki til materialini qiyoslash orqali o'xshashlik va farqlarni umumlashtirishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Monopredikativ sintaktik qurilmalar masalasi nemis va o'zbek tilshunosligida turli jihatlardan yoritib kelingan. Xususan, Duden grammatikasida (*Duden Grammatik der deutschen Gegenwartssprache*, 2016; *Duden: in 12 B.*, 2009) nemis tilidagi gap turlari va ularning struktur-semantik xususiyatlari batafsil tasniflangan. G. Helbig va J. Buscha (2019) xorijliklar uchun mo'ljallangan grammatikasida nemis tili sintaksisining amaliy jihatlari, jumladan, vokativ va infinitiv konstruksiyalar tahlil etilgan. E. Shendels (1992) ham nemis tili grammatikasida bir tarkibli gaplar masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

O'zbek tilshunosligida G'. Abdurahmonov (1996) "O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis" asarida bir bosh bo'lakli gaplar, jumladan, undalma va so'z-gaplarning tabiatini yoritgan. A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqalar (1992) "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" asarida gapning mazmuniy-kommunikativ tomonlari hamda predikativlik kategoriyasiga keng o'rin ajratgan. Shu bilan birga, "O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis" (1976) asari ham bu boradagi nazariy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuqorida ko'rsatilgan ishlarda monopredikativ qurilmalar, asosan, har bir til doirasida alohida tadqiq etilgan. Biroq nemis va o'zbek tillarini qiyosiy aspektida, xususan, vokativ va infinitiv gaplar misolida o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tavsiflash, qiyosiy-tipologik tahlil va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsiflash metodi yordamida vokativ va infinitiv gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari aniqlandi. Qiyosiy-tipologik metod orqali nemis va o'zbek tillaridagi monopredikativ qurilmalar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash va farqli belgilari aniqlashtirildi. Kontekstual tahlil metodi vositasida har ikki tildan keltirilgan misollar nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad nuqtai nazaridan izohlandi. Tadqiqot materiali sifatida nemis va o'zbek tillaridagi badiiy hamda og'zaki nutqqa xos namunaviy gaplar tanlab olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Monopredikativ sintaktik qurilma tushunchasi nutqning minimal birligi sifatida qayd etilishi mumkin bo'lgan barcha birliklarga xosdir. Bunday birliklarning barchasi nutqqa tegishli bo'lib, ular nutqiy birlik sifatida kommunikativ jarayonda namoyon bo'ladi.

Ushbu tipdagi birliklarga xos umumiy belgilar sifatida ularning monopredikativligi, prosodik yakunlanganligi, nutq jarayonida minimal kommunikativ funksiyani bajara olishi hamda mustaqil nutq birligi sifatida shakllanishi qayd etiladi.

Yuqorida belgilangan xususiyatlardan kelib chiqqan holda, monopredikativ birliklar qatoriga sodda gaplar, so'z-gaplar, to'liqsiz gaplar hamda bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlarini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ular bir so'zdan iborat bo'lsa ham, oddiy so'z emas, balki bir so'zli sintaktik qurilma sifatida baholanadi.

### Vokativ gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari

Vokativ gap — murojaat, chaqiriq, undash yoki diqqatni jalb qilishni ifodalovchi bir tarkibli monopredikativ konstruksiya bo'lib, o'ziga xos sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Bunda asosiy markaz murojaat obyekti, chaqiriqqa xos intonatsiya va kommunikativ ta'sirdan iborat bo'ladi. Odatda, bunday sintaktik qurilma undalma asosida shakllanadi. Uning tarkibida fe'l qatnashmasligi ham mumkin, shu sababli intonatsiya asosiy sintaktik vosita vazifasini bajaradi. Demak, murojaat, chaqiriq va murojaat obyekti vokativ gapning eng muhim belgilari hisoblanadi.

Nemis va o'zbek tillarida bir tarkibli strukturaning mavjudligi, murojaat markazining yetakchi vazifa bajarishi hamda intonatsiyaning muhim omil sifatida namoyon bo'lishi har ikki tildagi vokativ gaplarning o'xshash jihatlaridan biridir. Farqli jihati shundaki, o'zbek tilida chaqiriq xitoblari, ya'ni "ey", "hoy" kabi birliklar faol qo'llansa, nemis tilida intonatsiya va punktuatsiya nisbatan kuchliroq ahamiyat kasb etadi. Murojaat markazi ifodasini quyidagi misollarda kuzatish mumkin: nemischa *Mein Freund!* — o'zbekcha *Aziz do'stim!*; chaqiriq ifodasida nemischa *Meine Damen und Herren!* — o'zbekcha *Xonimlar va janoblar!*; murojaat obyekti ifodasida



esa nemischa *Mein Sohn!* — o‘zbekcha *O‘g‘lim!* shakllari qo‘llanadi.

Vokativ gapda formal ega-kesim munosabati mavjud bo‘lmasa-da, kommunikativ akt yuzaga keladi. Bu esa unda implitsit predikativlik shakllanishining grammatik asosi sifatida muhim omil hisoblanadi. Masalan, nemischa *Herr Doktor!* jumlasida *Ich spreche Sie an*, ya‘ni “Men Sizga murojaat qilyapman” ma‘nosini bildiradi. O‘zbekcha *Do‘stim!* shakli esa “Senga murojaat qilyapman” mazmunida qo‘llanadi. Ushbu misollar vokativ gaplarda yashirin predikativlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Nemis va o‘zbek tillarida vokativ gaplarga xos umumiy belgilar sifatida bunday sintaktik qurilmalarning bir tarkibli ekani, intonatsiyaning muhimligi, implitsit predikativlikning mavjudligi hamda kommunikativ ta‘sir kuchining yuqoriligi qayd etiladi. Asosiy farqlar sifatida esa o‘zbek tilida chaqiriq va emotsionallikning kuchliroq ifodalanishi, nemis tilida rasmiy murojaat modellarining nisbatan rivojlanganligi hamda strukturaning formal jihatdan qat‘iyroq ekani ko‘rsatiladi. O‘zbek tilida esa undalmaning erkin qo‘llanishi vokativ gaplarning muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval  
Nemis va o‘zbek tillaridagi vokativ gaplarning o‘xshash va farqli belgilari

VOKATIV GAP	
<p>O‘xshashliklar Bir tarkibli bo‘ladi. Intonatsion xususiyatga ega. Implitsit predikativlik mavjud. Murojaat ma‘nosini ifodalaydi. Kommunikativ ta‘sir kuchiga ega.</p>	<p><b>Farqlar</b> O‘zbek tilida emotsionallik kuchliroq ifodalanadi. Nemis tilida formal murojaat shakllari kuchliroq namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida chaqiriq yuklamalari faol qo‘llanadi. Nemis tilida unvonlar va artikllar muhim ahamiyat kasb etadi. Intonatsion darajada farqli belgilar kuzatiladi.</p>

#### Infinitiv gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari

Monopredikativ sintaktik qurilmalardan yana biri infinitiv gaplardir. Infinitiv gap — markazida infinitiv, ya‘ni harakat nomi yoki fe‘lning noaniq shakli turgan bir tarkibli monopredikativ konstruksiyadir. Bu turdagi qurilmada harakat fe‘lning noaniq shakli orqali ifodalanadi, subyekt esa ko‘pincha bevosita berilmaydi. Buyruq, tavsiya, zarurat, taqiq va maqsad kabi ma‘nolarning anglashilishi infinitiv gaplarga xos asosiy xususiyatlardan hisoblanadi.

Infinitiv gapning sintaktik xususiyatlari sifatida uning bir tarkibli ekani, monopredikativ qurilma sifatida shakllanishi, modallik belgisi hamda kommunikativ vazifa bajarishini alohida qayd etish mumkin. Bir tarkibli belgisi undagi sintaktik markazning infinitiv yoki harakat nomi bilan ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Masalan, nemis tilidagi *Aufpassen!*, *Langsam fahren!*, *Rechts abbiegen!* kabi qurilmalar o‘zbek tilida *Ehtiyot bo‘lish kerak!*, *Sekin haydash kerak!*, *O‘ngga burilish kerak!* shaklida ifodalanadi. Mazkur misollarda sintaktik markazni infinitiv yoki harakat nomi tashkil etadi.

Nemis va o‘zbek tillarida bir tarkibli strukturaning mavjudligi, markazda noaniq fe‘l shaklining turishi hamda implitsit subyektning kuzatilishi infinitiv gaplarning o‘xshash jihatlari sifatida belgilanadi. Biroq ikki tildagi infinitiv shakllar o‘rtasida ayrim farqlar ham mavjud. Xususan, nemis tilida “zu + Infinitiv” modeli muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida harakat nomi, ya‘ni “-ish” shaklining faol qo‘llanishi kuzatiladi. Infinitiv gapning predikativlik xususiyati shundaki, formal subyekt mavjud bo‘lmasa ham, modal munosabatning ifodalanishi predikativlikning implitsit tarzda shakllanishini ta‘minlaydi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, infinitiv gaplarda intonatsiyaning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Intonatsiyaning qat‘iy ohangda bo‘lishi buyruq, yumshoq ohangda bo‘lishi maslahat, ogohlantiruvchi ohangda bo‘lishi taqiq, neytral ohangda bo‘lishi esa axborot yetkazish semantikasini yuzaga keltiradi. Nemis va o‘zbek tillaridagi infinitiv gaplarning farqli xususiyatlari quyidagi jadvalda umumlashtiriladi (2-jadval).

2-jadval  
Nemis va o‘zbek tillarida infinitiv gaplarning farqli xususiyatlari

No	Tahlil belgisi	Nemis tilida	O‘zbek tilida
1	Infinitiv shakl	Infinitiv	-ish
2	Modallik	müssen, sollen	kerak, lozim
3	Intonatsiya	muhim	kuchli
4	Ellipsis	faol	keng
5	Formal struktura	qoidalashgan	erkin



Shunday qilib, nemis tilida vokativ gaplar tinglovchiga murojaat qilish vazifasini bajaruvchi, formal predikativlikka ega bo'lmagan, biroq implitsit predikativlikka asoslangan kommunikativ birliklar hisoblanadi. Infinitiv gaplar esa infinitiv shakldagi fe'l asosida qurilib, buyruq, taqiq yoki ko'rsatma ma'nolarini ifodalaydi hamda sintaktik jihatdan monopredikativ konstruksiyalar sifatida talqin qilinadi. Kommunikativ sintaksis nuqtayi nazaridan vokativ gaplar murojaat funksiyasi bilan, infinitiv gaplar esa imperativ semantikasi bilan ajralib turadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, nemis va o'zbek tillaridagi vokativ hamda infinitiv gaplar monopredikativ sintaktik qurilmalarning o'ziga xos ko'rinishlari sifatida bir tarkiblilik, implitsit predikativlik va kuchli kommunikativ ta'sir kabi umumiy belgilarga ega. Shu bilan birga, har ikki til o'ziga xos struktur-semantik xususiyatlarni namoyon etadi. Jumladan, o'zbek tilida emotsionallik va chaqiriq yuklamalarining faolligi, nemis tilida esa formal murojaat modellari hamda "zu + Infinitiv" qurilishining qat'iyligi yetakchi xususiyat sifatida ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, nemis va o'zbek tillarini o'qitishda monopredikativ qurilmalarni qiyosiy aspektda o'rgatish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, tarjima amaliyotida vokativ va infinitiv gaplarning implitsit predikativlik xususiyatini hisobga olish tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi; uchinchidan, ushbu mavzuni boshqa monopredikativ qurilmalar, xususan, so'z-gaplar va to'liqsiz gaplar misolida kengaytirib tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). Oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari uchun. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 248 b.
- [2] Duden Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. – Mannheim: Dudenverlag, 2016. – 1344 S.
- [3] Duden: in 12 B. / C. Fabricius-Hansen, P. Gallmann, P. Eisenberg, R. Fiehler, J. Peters. – Mannheim: Bibliographisches Institut, 2009. – B. 4: Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch. – S. 504 (1343 S.).
- [4] Shendels E. Deutsche Grammatik. – Moskau, 1992. – S. 272–287.
- [5] Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. – Berlin: Langenscheidt, 2019. – 656 S.
- [6] Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – 294 b.
- [7] O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. II qism. – Toshkent, 1976. – 560 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>